



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети


**Турсунова Юлдуз Бобоқулловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Abduraxmon Abduxalimov</b> YANGI O‘ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	5
<b>2. Омонулло Бўриев</b> СОҶИБҚИРОН НАЗАРИДАН ЎТГАН ТАРИХИЙ АСАР.....	12
<b>3. Хайрия Буриева</b> ПУТЕВОДИТЕЛЬ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИВА УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ, ИСТОРИЧЕСКАЯ И ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ.....	19
<b>4. Nodira Babadjanova</b> DINIY-MA’RIFIY SIYOSAT: QAT’IY KURASHDAN KENG BAG‘RIKENGLIK SARI.....	32
<b>5. Davletov Sanjarbek, Bekimbetov Bahodir,</b> OROL DENGIZINING PAYDO BO‘LISHI VA GIDROLOGIK O‘ZGARISHLARI TARIXIDAN.....	37
<b>6. Дорошенко Татьяна</b> ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛЬСКОЙ ДИАСПОРЫ В ТУРКЕСТАНЕ И ЕЕ УЧАСТИЕ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ КРАЯ (КОНЕЦ XIX -НАЧАЛО XXВВ.).....	42
<b>7. Axmedov Baxriddin</b> O‘ZBEKISTONDA HARBIY SUDYALAR INSTITUTI: TAYINLASH, MALAKA OSHIRISH VA ATTESTATSIYA JARAYONLARI (2001–2016 yillar misolida).....	50
<b>8. Akbarova Nigora</b> FARG‘ONA VILOYATIDA MUSIQA TA’LIMI TIZIMI: MUSIQA MAKTABLARINIING TASHKIL TOPISHI VA DASTLABKI DAVRDAGI FAOLIYATI.....	60
<b>9. Nurmetov Ismoil</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SIYOSATNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI RIVOJLANISH TARIXIDAN.....	65
<b>10. Зарипов Жахонгир</b> ИСТОРИОГРАФИЯ ПО МИГРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННЫЕ ЗОНЫ УЗБЕКИСТАНА 70-80-Х ГОДОВ XX ВЕКА.....	71
<b>11. Polvanov Azim</b> TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA SANCHUVCHI, KESUVCHI, VA ZARB BERUVCHI SOVUQ QUROLLAR VA ULARNING TASNIFI.....	79
<b>12. Choriyeva Nargiza</b> O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZM: HOZIRGI HOLATI, SALOHİYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	84




**Akbarova Nigora A'zamxonovna**

Farg'ona davlat texnika universiteti assistenti  
akbarovanigora1986@gmail.com

## **FARG'ONA VILOYATIDA MUSIQA TA'LIMI TIZIMI: MUSIQA MAKTABLARINING TASHKIL TOPISHI VA DASTLABKI DAVRDAGI FAOLIYATI**

**For citation:** Nigora A. Akbarova. THE SYSTEM OF MUSIC EDUCATION IN THE FERGANA REGION: ORGANIZATION AND INITIAL ACTIVITIES OF MUSIC SCHOOLS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18498741>

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada Farg'ona viloyatida musiqa ta'limining shakllanishi, xususan, musiqa va san'at maktablarining tashkil topishi, dastlabki faoliyati, ilk musiqa va san'at maktablarida kadrlar masalasi haqidagi ma'lumotlar tahlil etilgan. Tadqiqotda arxiv materiallari, tarixiy hujjatlar va soha mutaxassislarining ilmiy qarashlariga tayanilgan holda musiqa maktablarining tashkil topishiga ta'sir qilgan ijtimoiy-madaniy omillar yoritib o'tilgan. Shuningdek, dastlabki davrda o'quv jarayonining mazmuni, o'qitish usullari va milliy musiqa an'alarining ta'lim tizimidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqolada Farg'ona viloyatida musiqa ta'limining rivojlanishi hudud madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgani asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari musiqa ta'limi tarixini o'rganishda va zamonaviy ta'lim jarayonini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** musiqa, san'at, musiqa maktablari, fortepiano, skripka, violonchel, damli orkestr, xalq cholg'ulari, musiqa ta'limi, iste'dod, kadrlar tanqisligi.

**Акбарова Нигора Азамхоновна**

Ассистент Ферганского государственного  
технического университета

## **СИСТЕМА МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФЕРГАНСКОМ РЕГИОНЕ: ОРГАНИЗАЦИЯ И НАЧАЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУЗЫКАЛЬНЫХ ШКОЛ**

### **АННОТАЦИЯ**

В статье анализируется формирование музыкального образования в Ферганской области, в частности, создание музыкально-художественных школ, их начальная деятельность и кадровая политика первых таких школ. Исследование, основанное на архивных материалах, исторических документах и научных мнениях экспертов в данной области, освещает социокультурные факторы, повлиявшие на формирование музыкальных школ. Также рассматривается содержание образовательного процесса в ранний период, методы обучения и роль национальных музыкальных традиций в системе образования. В статье обосновывается тот факт, что развитие музыкального образования в Ферганской

области приобрело значительную роль в культурной жизни региона. Результаты исследования имеют научное и практическое значение для изучения истории музыкального образования и совершенствования современного образовательного процесса.

**Ключевые слова:** музыка, искусство, музыкальные школы, фортепиано, скрипка, виолончель, духовой оркестр, народные инструменты, музыкальное образование, талант, нехватка кадров.

**Nigora A.Akbarova**

Assistant Professor, Fergana State Technical University

## **THE SYSTEM OF MUSIC EDUCATION IN THE FERGANA REGION: ORGANIZATION AND INITIAL ACTIVITIES OF MUSIC SCHOOLS.**

### **ANNOTATION**

This article analyzes the development of music education in the Fergana region, specifically the establishment of music and art schools, their initial activities, and the personnel policies of the first such schools. Based on archival materials, historical documents, and expert opinions, the study illuminates the sociocultural factors that influenced the formation of music schools. It also examines the content of the educational process in the early period, teaching methods, and the role of national musical traditions in the education system. The article substantiates the fact that the development of music education in the Fergana region has acquired a significant role in the cultural life of the region. The research results have scientific and practical significance for studying the history of music education and improving the modern educational process.

**Index Terms:** music, art, music schools, piano, violin, cello, brass band, folk instruments, musical education, talent, shortage of personnel.

### **1. Dolzarbligi:**

Musiqa va san'atning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni beqiyos bo'lib, mamlakatimizda mazkur sohani isloh qilishga oid ishlar izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil

7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi" PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 31-may "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3022-sonli, 2017-yil 16-oktabr "Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish haqida"gi PQ-3325-sonli, 2022-yil 2-fevral "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli Qarori fikrimizning isbotidir [1]. O'zbekistonning jahon san'at maydonidagi o'rnini yanada ko'tarish va o'zbek musiqa san'atini yanada rivojlantirish uchun mazkur sohada dildan xizmat qiluvchi haqiqiy iste'dod egalarini tarbiyalash nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shunday iste'dod sohiblarini kashf etish, ularni sayqallanib, san'at sohasida xizmat qilishi uchun birlamchi bilimlarni berish esa musiqa maktablarining asosiy vazifasi va xizmatidir. Bu borada musiqa maktablari faoliyatini o'rganish, ularning yutuqlari, mavjud muammolariga jamoatchilik nigohini qaratish musiqa san'atida kelgusidagi yutuqlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Viloyatda mavjud musiqa maktablari qachon tashkil topganligi va dastlabki faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'rganish barcha uchun foydali ekanligini hisobga olgan holda viloyatimizdagi musiqa maktablari tarixiga bir nazar solish maqsadga muvofiqdir.

### **2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:**

Mazkur maqolada beriladigan ma'lumotlar tarixiylik, xolislik, izchillik, qiyosiy-mantiqiylik tamoyillari asosida yoritildi. O'zbekistonda musiqa ta'limining taraqqiyoti, musiqa maktablarining qurilishi va rekonstruksiya qilinishiga doir ma'lumotlar ayrim viloyatlar misolida B.Irzayev va S.Murtozovalarning tadqiqotlarida keltirib o'tilgan bo'lsada, mustaqillik yillarida va aynan Farg'ona viloyati kesimida alohida tadqiq etilmagan.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Farg'ona viloyatida musiqa maktablarining tashkil topishi jarayoni alohida tarixga ega. Farg'ona Xalq konservatoriyasi 1918-yil ochilib, unda Chernikovskiy, Frey, Keyzer, Raxalskiy, O.F.Melnikova kabi o'qituvchilar dars berdi. Ular orasida harbiy asirlar ham bor edi. Pianinochi va dirijyor Keyzer, skripkachi Frey, violonchelist Katana shular jumlasidandir [7;83]. 1920-yilga kelib Farg'ona Xalq konservatoriyasi yopiladi va ko'pgina iqtidorli musiqachilar boshqa joyga ketdi. 1920-1921-yillarda O'zbekistonda Kattaqo'rg'on, Samarqand, Namangan, Toshkent, Andijon, Skobelev (Farg'ona) shaharlarida musiqa maktablari faoliyat ko'rsatdi. Musiqa maktablarida musiqa o'qituvchilari va erkin musiqachilik bo'yicha kadrlar tayyorlandi. O'zbekistonda 1925-yilda musiqa ta'limi o'quv muassasalarida 451 nafar o'quvchi ta'lim olib, ularga 65 nafar o'qituvchi ta'lim-tarbiya berdi. Tashkil etilgan musiqa bilim yurtlari asosan Toshkent, Xorazm, Samarqand va Buxoro viloyatlariga to'g'ri keldi [7;84].

XX asrning 30-yillarga kelib eng dolzarb muammo hisoblangan musiqiy ta'limdagi kadrlar tanqisligini bartaraf etish maqsadida Farg'ona viloyatida ham musiqa maktablari ochila boshlandi. Viloyatda dastlabki musiqa maktablarining tashkil topishi 1938-yildan boshlangan. Aynan shu yili viloyatdagi ilk musiqa maktabi hisoblangan Qo'qon shahar bolalar musiqa maktabi (hozirgi 5-BMSM)ga asos solindi. Mazkur musiqa maktabi faoliyatining dastlab davrlarida 50 nafar pedagog-xodim xizmat qilgan. Qabul kunduzgi va kechki turlarga bo'linib, bu ikki turda to'rt yuzga yaqin o'quvchi o'qitildi. Dastlabki tashkil topgan musiqa maktablaridagi kabi bu musiqa maktabda ham asosan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim berilar edi. Bular: fortepiano, skripka, violonchel, bayan-akkordeon, damli orkestr, xalq cholg'ulari kabilardir [8].

1939-yili esa 1-bolalar musiqa maktabi Farg'ona shahrida o'z faoliyatini boshlagan. Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi tiklanish davridagi iqtisodiy qiyinchiliklar sabab musiqa maktablari ochish jarayoni ma'lum muddat to'xtab qolganligini 1959-yilga qadar faqat Farg'ona shahridagi 2-musiqa maktabi va Marg'ilon bolalar musiqa maktabi (hozirgi 8-BMSM) tashkil etilganligi ham isbotlaydi. Arxiv materiallaridagi ma'lumotlarga ko'ra 1960-1961-o'quv yilida Farg'ona viloyatida 7 ta musiqa maktablari faoliyat yuritgan bo'lib, ular quyidagilardir: Farg'ona shahridagi 1-musiqa maktabi, Farg'ona shahridagi 2-musiqa maktabi, Qo'qon shahar musiqa maktabi, Marg'ilon shahar musiqa maktabi (hozirgi Marg'ilon shahar 8-BMSM), Leningrad tumani musiqa maktabi (hozirgi Uchko'prik tumanidagi 20-BMSM), Quvasoy shahar musiqa maktabi va Chust tumani (1961-yil 31-martga qadar Farg'ona viloyati tarkibida bo'lgan) musiqa maktabi [2]. 1971-yilga qadar birgina Farg'ona shahrida yana uchta musiqa maktabi ochildi. XX asrning 60-yillari butun vodiya bo'lgani kabi Farg'ona viloyatida ham musiqa maktablari ochish jadal olib borildi va maktablar soni keskin ko'tarildi. Jumladan, 1960-yili 20-bolalar musiqa maktabi (Uchko'prik tumani); 1961-yili 3-bolalar musiqa maktabi (Farg'ona shahri) va Bag'doddagi 16-bolalar musiqa maktabi; 1963-yili 14-bolalar musiqa maktabi (Oltiariq tumani); 1965-yili Qo'qon shahridagi 6-bolalar musiqa maktabi va Rishton tumanidagi 21-bolalar musiqa maktabi; 1967-yili Beshariq tumanidagi 18-bolalar musiqa maktabi, Toshloq tumanidagi 22-bolalar musiqa maktabi va Quva tumanidagi 13-musiqa maktabi; 1970-yili Farg'ona shahridagi 4-bolalar musiqa maktabi, Farg'ona tumanidagi 25-bolalar musiqa maktabi va Marg'ilon shahridagi 10-bolalar musiqa maktabi; 1972-yili Marg'ilon shahridagi 9-bolalar musiqa maktabi va Dang'ara tumanidagi 27-bolalar musiqa maktabi, Yozyovon tumanidagi 28-bolalar musiqa maktabi; 1982-yili 7-bolalar musiqa maktabi (Qo'qon shahri)ga asos solindi [9].

Dastlabki tashkil topgan musiqa maktablaridagi yo'nalishlar 5-6 tani tashkil etgan bo'lib, asosan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim berilar edi. Bular: fortepiano, skripka, violonchel, bayan-akkordeon, damli orkestr, xalq cholg'ulari kabilardir. Masalan, Farg'ona shahar 2-musiqa maktabida 1960-1961-o'quv yilida 6 ta yo'nalish bo'lib, bular:

- Fortepiano yo'nalishi. Jami 52 ta o'quvchi bo'lib, bitiruvchilar soni 1 nafarni;
- Skripka yo'nalishi. Jami 13 nafar o'quvchi tahsil olib, bitiruvchilari mavjud emas;
- Bayan sinfi. Jami 56 nafar o'quvchi bo'lib, bitiruvchilar soni 1 nafarni;
- Akkordeon sinfi. Jami 29 nafar o'quvchi bo'lib, bitiruvchilari mavjud emas;
- O'zbek xalq cholg'u asboblari sinfi. Jami 12 nafar o'quvchi, bitiruvchilari mavjud emas;
- Goboy sinfi. Jami 1 nafar o'quvchi tahsil olib, bitiruvchisi mavjud emas edi [3]

Shu o'rinda ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan goboy cholg'u asbobi haqida ma'lumot berib ketsak foydali bo'ladi deb hisoblaymiz. Goboy (fransuzcha hautbois, so'zma-so'z "baland daraxt", inglizcha goboy, italyancha goboy, nemis Oboe) — soprano registrining qamishdan yog'ochidan yasalgan nafasli cholg'u asbobi bo'lib, klapanli va qo'sh qamishli konussimon trubkadan iborat. Goboy XVIII asrning birinchi yarmida o'zining zamonaviy qiyofasini oldi. Asbob ohangdor, ammo bir oz burunli va yuqori registrda o'tkir tembrga ega. 1989-yilda u Ginnesning rekordlar kitobiga eng qiyin asbob sifatida kiritilgan [10].

Musiqa maktablaridagi sifatli ta'lim taraqqiyotida ularning moddiy-texnik bazasini qay darajada yetarli bo'lganligi muhim ahamiyatga egadir. Bu borada ham viloyatdagi deyarli barcha maktablarda musiqiy sozlar yetishmas, milliy cholg'u sozlari juda kam miqdorda edi. Maktab rahbariyatlarining talabnomalarida ham milliy cholg'ular uchun so'rovlar deyarli yo'q edi. Birgina Farg'ona shahar 3-musiqa maktabining 1967-1970-yillardagi hisobotida aks etgan moddiy-texnik bazani shakllantirish bo'yicha raqamlarga murojaat qilsak ham buni yaqqol guvohi bo'lishimiz mumkin. Ushbu maktabda mavjud bo'lgan musiqa asboblari quyidagilar:

Pianino-15 ta	Rubob-7 ta
Bayan-6 ta	G'ijjak prima-2 ta
Orkestr bayanlari-6 ta	Rubob prima-3 ta
Akkardeon- 3 ta	Doira-11 ta
Klarnet- 3 ta	Skripka-2 ta
Chang-1 ta	Rus xalq cholg'ulari orkestri-3 komplekt

Ko'rinib turibdiki, butun maktab bo'yicha besh turdagina milliy cholg'u sozlari bo'lib, ular ham atiga 24 donani tashkil qilgan. Shu hisobot davomida maktab ma'muriyatining mutasaddi tashkilotga bergan talabnomasi keltirilgan. Unga ko'ra quyidagi musiqa asboblari yetishmasligi ko'rasatilgan:

Royal-1 ta	Truba-5 ta
Pianino-5 ta	Trombon-5 ta
Gaboy-2 ta	Qo'l tori-2 ta
Fleyta-2 ta	Damli orkestr komplekti-1 ta to'plam
Klarnet-5 ta	

Ushbu ro'yxatda faqat 2 donagina qo'l tori buyurtma qilinishi ham milliy cholg'ularga yetarli e'tibor ajratilmaganligini isbotlaydi [4].

Sovet hokimiyati davrida ta'lim tizimiga nisbatan qo'llangan "qoldiq prinsipi" natijasida musiqa maktablarining moddiy-texnik bazasi nochor holatda edi. Shunga qaramay dastlabki musiqa maktablari o'quvchilari ham o'z yo'nalishlarida bir qancha muvaffaqiyatlarga erishganlar. Arxiv materiallarining guvohlik berishicha, 1965-1966-o'quv yilida viloyatdagi Marg'ilon shahar 1-musiqa maktabidan 3 nafar dutor va 1 nafar akkardion yo'nalishi, Qo'qon musiqa maktabidan 1 nafar fortepiano va 1 nafar rubob yo'nalishi, Farg'ona shahar 1-musiqa maktabidan 1 nafar fortepiano yo'nalishi, Farg'ona shahar 2-musiqa maktabidan 1 nafar fortepiano, 1 nafar violonchel, 1 nafar klarnet va rus xalq cholg'ulari yo'nalishi, Rishton musiqa maktabidan esa 1 nafar fortepiano yo'nalishi o'quvchilari respublika bosqichidagi tanlovlarga tavsifa etilgan [5].

Musiqa maktablarida tashkil etilgan hisobot konsertlari, turli tadbirlar ham musiqa sohasida yetuk mutaxassislarini yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada viloyatdagi maktablarda salmoqli ishlar amalga oshirildi. 1968-yili Farg'ona shahar 1-musiqa maktabida pianinochilar o'rtasida P.I.Chaykovskiyning "Vremena goda" asari bo'yicha konsert-leksiya o'tkazilgan bo'lib, bu tadbir "Ferganskaya pravda" gazetasida yoritilgan. Shu yili yana Oltiariq tumani musiqa maktabida viloyat maktablari o'zbek xalq cholg'u orkestrlarining katta konsertlari o'tkazilganligi juda muhim voqeadir [6].

#### 4.XULOSA

Xulosa qilib aytganda musiqa maktablarining Farg'ona viloyatida tashkil topish jarayoni musiqiy ta'limni kadrlar bilan ta'minlash ehtiyojidan kelib chiqdi. Maktablar ochish, ularda tizimli o'quv dasturlari asosidagi o'qitishni yo'lga qo'yish, ayniqsa, moddiy-texnik bazasini ta'minlab berish juda qiyinchilik bilan amalga oshirildi. Shuningdek, musiqa maktablaridagi ta'lim milliy

ruhdan juda uzoq bo‘lib, asosiy maqsad yevropa musiqasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, milliy cholg‘u ichrochilarini tayyorlashga ahamiyat qaratilmadi. Shunga qaramay, musiqa maktablarida mehnat qilayotgan pedogoglar o‘z davrida ma’lum yutuqlarni qo‘lga kiritdiki, bu keyingi taraqqiyot uchun asos bo‘ldi.

#### Iqtiboslar/Сноски /References:

---

1. Madaniyat va san`at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-112-sonli Qaror. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 07/22/112/0099-son; 04.12.2024-y., 07/24/399/1000-son
2. Farg‘ona viloyat arxivi. Fond 1125. Ro‘yxat 4. Yig‘ma jild 304.
3. Farg‘ona viloyat arxivi. Fond 1125. Ro‘yxat 5. Yig‘ma jild 85
4. Farg‘ona viloyat arxivi. Fond 1125. Ro‘yxat 6. Yig‘ma jild 583.
5. Farg‘ona viloyat arxivi. Fond 1125. Ro‘yxat 6. Yig‘ma jild 310.
6. Farg‘ona viloyat arxivi. Fond 1125. Ro‘yxat 6. Yig‘ma jild 442.
7. Murtozova S.B. XIX asr oxiri XX asr 80-yillarida O‘zbekiston musiqa madaniyatidagi transformatsiya jarayonlari. – Toshkent: – Voris-nashriyot, 2019.
8. A‘zamxonovna, A. N. (2025). FROM THE HISTORY OF THE FORMATION OF MUSIC SCHOOLS IN THE FERGANA VALLEY. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, 3(3), 28-30.
9. A‘zamxonovna, A. N. (2024). THE PRESTIGE OF MUSIC SCHOOLS IN THE FERGHANA PROVINCE WITHIN THE REPUBLIC AND THE INTERNATIONAL ARENA DURING THE INDEPENDENCE YEARS. Western European Journal of Linguistics and Education, 2(5), 145-151.
10. <https://ru.wikipedia.org>

# ЎТМИШГА НАЗАР

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

### Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qator muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qator sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].